“Davlat ekologik ekspertizasi markaz”
davlat muassasasi Bosh direktorining
2026-yil ____ maydagi _____-son
buyrug‘iga 15-ilova

“Davlat ekologik ekspertizasi markazi” davlat muassasasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisi

LAVOZIM YO‘RIQNOMASI

I. Umumiy qoidalar
II.

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisning lavozim yo‘riqnomasi (keyingi o‘rinlarda – bosh mutaxassis) “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 6-iyuldagi PF–6257-son Farmoni, “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 7-iyuldagi PQ–5177-son qarori, “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 27-noyabrdagi PF–200-son Farmoni, “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PF–71-son Farmoni hamda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizomga (ro‘yxat raqami 3319, 2021-yil 8-sentabr) muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, bosh mutaxassis faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Bosh mutaxassis o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining buyruqlari, topshiriqlari, Davlat ekologik ekspertizasi markazi Bosh direktorining buyruqlari va topshiriqlariga amal qiladi.

2. Bosh mutaxassis O‘zbekiston Respublika Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

3. Bosh mutaxassisning faoliyati O‘zbekiston Respublika Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) Korrupsiyaga qarshi

kurashish va komplayens nazorati bo‘limi va O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan uzviy hamkorlikda tashkil etiladi.

4. Bosh mutaxassis zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishga oid faoliyati Qo‘mitaning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

5. Bosh mutaxassis o‘z ish faoliyati yuzasidan bevosita Markaz Bosh direktoriga bo‘ysunadi va uning rahbarligida ish olib boradi.

6. Bosh mutaxassis zimmasiga ularning vazifalari va funksiyalari bilan bog‘liq bo‘lmagan topshiriqlar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

7. Bosh mutaxassis faoliyatiga samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qo‘llanilmaydi. Bunda, samaradorlik ko‘rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalar tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etiladi.

8. Bosh mutaxassis lavozimiga oliy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxs tayinlanadi.

II. Vazifalari va funksiyalari

9. Quyidagilar Bosh mutaxassisning asosiy vazifalari va funksiyalari hisoblanadi:

Bosh mutaxassisning asosiy vazifasi Davlat ekologik ekspertizasi markazi (keyingi o‘rinlarda – Markaz) va uning hududiy filiallari xodimlari tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, xodimlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatnini yanada oshirish hamda jamoada korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat shakllantirish;

korrupsiyaviy xatti-harakatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, odob-axloq qoidalari buzilish holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, preventiv o‘rganishlarni amalga oshirish orqali ularga imkon beruvchi omillarni bartaraf etish va takliflar ishlab chiqish;

Markaz va uning hududiy filiallari xodimlarining o‘z mehnat (xizmat) faoliyatidan tashqari qo‘shimcha tadbirkorlik bilan shug‘ullanishini oldini olish, tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a’zosi bo‘lgan holatlarni aniqlash yuzasidan tizimli chora-tadbirlar ko‘rilishini amalga oshirish;

Markaz va uning hududiy filiallari xodimlari tomonidan korrupsion holatlar sodir etilayotganligi haqidagi ijtimoiy tarmoqlarda chop etilgan maqola, video va boshqa materiallar, jismoniy va yuridik shaxslarning shikoyat, ariza va ma’lumotlari yuzasidan Bosh direktor roziligiga asosan xizmat tekshiruvi o‘tkazish;

Markaz va uning hududiy filiallarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

Markaz va uning hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish.

10. Bosh mutaxassis o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) Markaz va uning hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:

Markaz va uning hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Markaz va uning hududiy filiallari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi.

b) Markaz va uning hududiy filiallarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

Markaz va uning hududiy filiallari tomonidan o‘xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida, davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo‘nalishlari haqida ma’lumot to‘playdi;

Markaz va hududiy filial xodimlarining huquqiy ongini rivojlantirish maqsadida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

Korrupsion harakatlar sodir etishga moyil xodimlar toifasini aniqlab, ular bilan profilaktik suhbatlar olib borish;

Aloqa kanallari orqali Markaz va uning hududiy filiallari xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi;

Markaz va uning hududiy filiallari faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so‘rovlar o‘tkazadi;

har chorakda Markaz va uning hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy holat haqida Markaz Bosh direktoriga ma’lumot tayyorlaydi.

v) Markaz va uning hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarida Markaz va uning hududiy filiallariga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

Markaz va uning hududiy filiallari barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha treninglar o‘tkazilishini hamda ularda xodimlarning faol ishtirok etishini nazorat qiladi;

Markazning rasmiy veb-saytidagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘limi hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtirilgan ma’lumotlarni yangilab borilishini ta’minlaydi;

Markaz va uning hududiy filiallari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va markazning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini nazorat va monitoring qiladi;

g) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishda ishtirok etadi.

11. Bosh mutaxassisga ushbu lavozim yo‘riqnomasida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

III. Huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

12. Bosh mutaxassis quyidagi huquqlarga ega:

zarur bo‘lgan axborotni Markaz va uning hududiy filiallaridan belgilangan tartibda so‘rab olish;

Markazning yig‘ilishlarida, majlislarida va boshqa tadbirlarida qatnashish;

zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni lozim darajada bajarilishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlar yaratilishi;

Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

13. Bosh mutaxassis ushbu lavozim yo‘riqnomasi va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklangan vazifa va funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarishga majbur.

Bosh mutaxassis qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

14. Bosh mutaxassis o‘zi viza qo‘ygan hujjatlarni qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

15. Bosh mutaxassis o‘z majburiyatlari va funksiyalari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.